

## BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA KITOBOXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH – DAVR TALABI

**G‘iyosova Feruzaxon**

Farg‘ona viloyati Uchko‘prik tumani 17-maktab  
boshlang‘ich sind oliv toifali o‘qituvchisi

**Saminjonava Muyassarxon**

Qo‘qon Universiteti talabasi

### **ANNOTATSIYA**

Maqolada boshlang‘ich sind o‘quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish haqida gap ketadi. Boshlang‘ich sind o‘quvchilarini yoshlik davridan kitobga qiziqtirilsa, eng avvola madaniyati shakllanadi so ‘ng kitobga bo‘lgan qiziqishi oshadi. Bizga hozirgi zamonda har tamonlama yetuk bolalar davr talabi bo‘lib kelmoqda.

**Kalit so‘z:** Kitobxonlik, madaniyat, davr, bolalar, xalq, zamonaviy, texnologiya, taraqiyot.

### **АННОТАЦИЯ**

В статье говорится о формировании культуры чтения у учащихся младших классов. Если ученики начальной школы будут интересоваться книгами с раннего возраста, в первую очередь у них сформируется культура, а затем повысится интерес к книгам. В наше время зрелые дети – это требование нашего времени.

**Ключевые слова:** Чтение, культура, период, дети, люди, современность, технологии, развитие.

### **ABSTRACT**

The article talks about the formation of reading culture among elementary school students. If elementary school students are interested in books from a young age, first of all, their culture will be formed, and then their interest in books will increase. In our modern times, mature children are the demand of our time.

**Keyword:** Reading, culture, period, children, people, modern, technology, development.

### **KIRISH**

XXI asr fan-texnika taraqqiyoti jadal rivojlanayotgan, axborot-kommunikatsion vositalar xizmatidan foydalanish sur’ati keskin ortayotgan, fuqarolarning talab, ehtiyoj

va maqsadlarini qondiruvchi moddiy manbalar yetarlicha ishlab chiqarilayotgan davr - innovatsion texnologiyalar asri bo‘lib tarixga kirmoqda. Insoniyatning farovon, to‘kinsochin hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan moddiy-texnik jihozlar kundan kunga, yildan yilga takomillashib, sayqallanib, qulayliklari ortib bormoqda. Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi, "insonlarning millati, tili va dinidan qat‘i nazar, erkin, tinch va badavlat umr kechirishi, bugun hayotidan rozi bo‘lib yashashi"<sup>1</sup>, yurt kelajagi kafolatlanganiga ishonch hosil qilishi Davlatimizda olib borilayotgan oqilona va odilona siyosatning bosh maqsadidir. Zero, O‘zbekiston, yurtboshimiz e’tirof etganidek, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari jadal harakat qilmoqda.

O‘zbekistonda olib borilayotgan tub islohatlar mazmuni yosh avlodni ma’naviy yetuk, intellektual salohiyatli barkamol avlod qilib tarbiyalashga qaratilgan.

Kitobxonlik inqirozi nafaqat O‘zbekistondagi hodisa, qaysidir ma’noda - u ba’zida va ancha katta darajada rivojlangan G‘arb mamlakatlariga ham tegishildir. Lekin hamma joyda, jamoatchilik anchadan beri muammoni hal qilish uchun jiddiy choralar ko‘rmoqdi. O‘qish va "kitobxon" milliy qadriyat sifatida tobora ko‘proq tan olinmoqda. Hammamiz bilamizki, kitob o‘qiydigan xalqlar o‘qishni yaxshi ko‘radigan bolalardan paydo bo‘ladi. Kitobxon xalq - rivojlanayotgan xalqdir. Zamonaviy sharoitda jamiyat taraqqiyotida bolalar kitobxonligi muammosi ommaviy tus olgan. Bolalar kitobxonligini maqsadli tashkil etish matabning asosan boshlang‘ich matabning ustuvor vazifalaridan biri bo‘lishi kerak.

Ma’lumki, Vazirlar mahkamasining “2020-2025 yillarga mo‘ljallangan kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va q’llab -quvvatlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi qarori loyihasi e’lon qilindi. Bunga ko‘ra yurtimizda barcha sohada kitobxonlikni targ‘ib etish, turli xil loyihalari va tanlovlar ishlab chiqish, u orqali yoshlarda kitob mutola asiga qiziqish uyg‘otish maqsad qilib qo‘yildi.

Mamlakatimiz rahbarining 2017-yil 12-yanvardagi “Kitobxonlik madaniyatini yanada rivojlantirish chora tadbirlari” to‘g‘risidagi qarori keng jamoatchilik tomonidan iliq qarshi olindi va keng ma’naviyat dargohlarining e’tirofiga sazovor bo‘lmoqda. 2017-yil 13-sentabrdagi kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish borasidagi navbatdagi qarori yuqoridagi fikrimizni asoslovchi muhim omil bo‘ldi.

Hozirgi vaqtida qabul qilingan global tendentsiyalarga ko‘ra yosh avlodning o‘qishga bo‘lgan qiziqishi kamayishi keng miqyosga ega. Ko‘pgina rivojlangan davlatlar, shu jumladan O‘zbekistonda ham ushbu hodisaga faol qarshi choralar ko‘rish vazifalari shakllantirilgan. Aholi o‘rtasida kitob o‘qishga qiziqish pasayishining hozirgi global tendentsiyasi o‘qish madaniyatining tizimli inqirozini ko‘rsatadi, Bu

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. - "Zarafshon", 2018-yil 29-dekabr, 155-156-son.

ko‘plab mamlakatlarga, shu jumladan O‘zbekistonga ham ta’sir qiladi. Mamlakatimiz uzoq vaqtan beri dunyodagi eng ko‘p kitobxonga ega davlat deb topildi. Biroq, XX asrning 90 -yillaridan boshlab O‘zbekistonda kitobxon faolligining pasayishi boshlanadi.

Bolalar kitobxonligini shakllantirishda maktab hamda ota-onalar zimmasiga nihoyatda murakkab va mas’uliyatli vazifa yuklanadi. Buning uchun ota-onalarning o‘zi ham yuksak didga ega va ma’rifatli va bilimli bo‘lishlari kerak. Ma’lumki, bola kitob o‘qishni bilgan taqsirdagina, kitob uning ma’naviy hayotida muhim rol o‘ynaydi. Kitob bolaning ma’naviy boyishi uchun uni ma’naviy, aqliy, estetik o‘sishga yo‘llashi zarur. Buning uchun dastlabki turtki oilada bolaga o‘qib berilgan birinchi kitob bo‘lsa, ikkinchisi, bola otasi va onasining o‘qishini eshitib, badiiy obrazlar go‘zalligini tasavvur qilishi, kitob bilan ana shu birinchi va ikkinchi uchrashuv bolaning keyingi o‘smirlilik davrida uning ma’naviy hayotining barcha sohalari: mehnat, o‘yin, musiqa, bolalar ijodi bilan bog‘liq bo‘lib, uni hayotining hamma tomonlarini qamrab olishi zarur. Chunki, bola hayotini ijodiy mehnat, ertaklar olami, fantaziyalar, o‘yin va musiqasiz tasavvur etish qiyin. Bularning barchasini kitobxonlik ham qamrab olsa, uning hayoti mazmunsiz, voqeа-hodisalarning tub mohiyatini anglab olishga harakat qiladigan, turmush ziddiyatlarini tushunadigan aql-zakovatli ma’nан barkamol shaxs bo‘lib yetishishiga yordam beradi. Ana shunday aql-zakovatni shakllantiruvchi, inson cha’naviy dunyosini boyituvchi vosita - bu kitob, kitobxonlikdir.

Haqiqatan ham kitobxonlik insonni barkamollikka yo‘llasa, uni o‘qimaslik johillikka, ma’rifatsizlikka olib kelib, natijada ma’naviy bolada qashshoqlik yuzaga keladi. Maktabda, oilada muhim vazifa - kitobxonlikni inson hayotida zaruriyatga aylantirishdan iborat. Agar kitobxonlik zaruriyatga aylanmasa, oilada ham, maktabda ham unga mehr-muhabbat, e’tibor kuchaytirilmasa farzandni kitobga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirish mumkin emas.

Haykaltarosh oddiy tuproq va suvdan loy qorib, san’at asari yaratganidek, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ham qo‘lidagi oq-qorani tanimaydigan go‘dakdan, murg‘akkina niholdan buyuk olim, fan doktori yetishtirib chiqarishlari mumkin-ku! To‘g‘ri, bunda ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilarining ham o‘rnii bor, ammo ilk qadamni boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tashlaydi, buning uchun ulardan ozgina mehnat, jonkuyarlik, fidoyilik va vijdon talab etiladi. Bu gaplarim bilan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga aql o‘rgatish emas(bundan yiroqman), shunchaki fikrlarim bilan o‘rtoqlashmoqchiman. Alifbedan chiqqan, harflarni taniydigan, so‘zlarni o‘qiy oladigan o‘quvchiga kichik-kichik she’rlarni yod oldirish bolaning nutqini o‘stirishda muhim ahamiyatgaega. Asta-sekinlik bilan ertak, hikoyalari o‘qib berib, o‘zлari ham uyda o‘qib kelishlarini aytish lozim.Bunda o‘qituvchi ota-onalar bilan hamkorlikni to‘g‘ri yo‘lga qo‘ysa, yanada muvaffaqiyatli bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini

o‘quvchilarni darsdan tashqari to‘garaklarda ertak yoki hikoyalarni tahlil qilishga o‘rgatishi lozim. Dars jarayonida o‘quvchilar o‘qigan asarlarini og‘zaki bayon qilib berishi kerak, chunki og‘zaki nutqi shu orqali shakllanadi. Ammo tahlil juda zarur. O‘quvchilarga asarning mazmunidan kelib chiqib: “Nega shunday?”, “Qayerda xatoga yo‘l qo‘ydi?”, “Nima qilsa yaxshi bo‘lardi?”, “Uning o‘rnida siz bo‘lganiningizda nima qilardingiz?” kabi savollar berib, mustaqil fikrlashga o‘rgatish kerak. Bu esa o‘quvchining ongini rivojlantiradi, dunyoqarashini kengaytiradi, mustaqil shlashga o‘rgatadi. Agar o‘quvchiga “bolam, xato aytmadingmi?”, “fikring to‘g‘rimi?” degan savollar bilan fikrining to‘g‘ri ekanligini isbotlab berishga undasak, bola matndan dalillar keltirish bilan fikrini isbotlay olsa, bu o‘qituvchining eng katta yutug‘i. Nafaqat o‘qituvchi, ota-onasining ham, xalqimizning ham yutug‘i hisoblanadi. Chunki o‘z so‘zida qat’iy turadigan, nima to‘g‘ri-yu, nima noto‘g‘ri ekanligini ajrata oladigan o‘quvchi erta mustaqil hayotga qadam qo‘yanida, begonalar orasida ko‘r-ko‘rona birovlarning so‘ziga ishonib ketavermaydi. To‘g‘ri yo‘lidan og‘ishmaydi.

Xulosa qilib shuni aytamanki, hech kim ularni o‘z maqsadidan chalg‘ita olmaydi. Bu ish yuqori sinfga o‘tganda ham shu zaylda davom ettirilsa, ko‘zlangan maqsadga, adbatta, erishiladi. Bolani kitobga qiziqtirish kichik yoshdan boshlanadi. Bunda ota-ona bilan bir qatorda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi ham birga ishlashi kerak. Bolani eng avvalo, kitobga bo‘lgan hurmati oshadi, har tomonlama yetuk, qobilyatli bo‘lib shakllanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Mirziyoyev Sh.M. Ozbekiston Respublikasi Prezidentining "Ozbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida"gi Farmoni. // Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. - T.: «G‘afur G‘ulom», 2017.- 92 b.
2. Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida. Xalq so‘zi, 2017 yil 14 sentiyabr. - № 184.
3. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash (Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, metodistlari uchun metodik qo‘llanma.) Sharq nashriyoti - 2019.
4. Abdulla Avloniy, “Turkiy guliston yoxud axloq”
5. “Ma’rifat” gazetasi 2023-y. 1-2-sonlar.
6. Islom Karimov, “Yuksak ma’naviyat –yengilmas kuch”